

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SO'Z-KIRITMALARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI****Davletova Shoxida Bazarbayevna**Urganch davlat universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası  
tayanch doktoranti**SYNTACTIC CHARACTERISTICS OF WORD INTRODUCES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES****Davletova Shokhida Bazarbaeva**Department of Theory and Practice of Translation,  
Urganch State University foundation doctoral student**СИНТАКСИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СЛОВ-ИНТРОДОВ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****Давлетова Шохида Базарбаевна**Кафедра теории и практики перевода Ургенчского  
государственного университета, докторант

e-mail:  
[shoxidadavletova0@gmail.com](mailto:shoxidadavletova0@gmail.com)  
tel: +998995641028  
<https://orcid.org/0000-0003-4103-9983>

**Annotatsiya:** Kiritmalar tuzilishiga ko'ra turlichadir. Shunga qaramay, tilda bu hodisaning mavjudligini belgilash, maxsus sintaktik kategoriya sifatida ajratish va asoslash tilshunoslikda gap shaklidagi kiritmalar bilan bog'liq holda olib borilgan. Ma'lumki, so'z va so'z birikmalari shaklidagi kiritmalar nutqda kiritma gaplarga nisbatan kamroq uchraydi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi so'z kiritmalar, ularning turlari va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** parallel so'z-kiritmalar, nonparallel so'z-kiritmalar, aniqlovchi so'z-kiritmalar, to'ldiruvchi so'z-kiritmalar, hol so'z-kiritmalar.

**Abstract:** Inputs vary by structure. Nevertheless, determining the presence of this phenomenon in the language, separating it as a special syntactic category, and justifying it were carried out in linguistics in connection with sentence-form entries. It is known that introductions in the form of words and phrases are less common in speech compared to introductory sentences. This article analyzes English and Uzbek word introductions, their types and syntactic features.

**Keywords:** parallel clauses, non-parallel clauses, defining clauses, complementary clauses, conditional clauses.

**Аннотация:** Входные данные различаются в зависимости от структуры. Тем не менее, определение наличия этого явления в языке, выделение его в особую синтаксическую категорию и обоснование проводились в языкоznании в связи с словоформными статьями. Известно, что вступления в виде слов и словосочетаний встречаются в речи реже, чем вводные предложения. В данной статье анализируются английские и узбекские словесные интродукции, их виды и синтаксические особенности.

**Ключевые слова:** параллельные предложения, непараллельные предложения, определяющие предложения, дополнительные предложения, условные предложения.

## KIRISH

Kiritmalar struktur jihatdan turli xildir. So‘z va so‘z birikmalari shaklidagi kiritmalar hajm jihatdan nisbatan ixcham bo‘lib, asosiy gap strukturasidagi sintaktik va intanatsion alohidaligi kiritma gaplardagidek juda aniq sezilmaydi. Kiritma gaplarga xos bu xususiyatlar, xususan, ularning boshqa gap sostavida mustaqil gap sifatida kelishi kiritma so‘z va so‘z birikmalarining kiritma gaplarga nisbatan kam o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Kiritma konstruksiyalarning barcha struktur tiplarini aniq belgilab, ularning har bir turini analiz qilish, umumiyligini va xususiy jihatlarini qiyoslash asosida mazkur sintaktik kategoriyaning asosiy belgilarini ochib berish mumkin. Xuddi shu nuqtai nazardan ushbu maqolada kiritma konstruksiyalarning - so‘z-kiritmalarining har bir struktur tipini – tuzilishiga ko‘ra turlarini alohida-alohida olib o‘rganildi. O‘zbek va ingliz tillarida so‘z kiritmalar muayyan bir grammatik shaklga ega bo‘ladi. Ular asosiy gap tarkibiga biror gap bo‘lagi shaklida kiritilgan bo‘ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi so‘z kiritmalarining turlari va leksik-grammatik xususiyatlari badiiy adabiyotlardan olingan misollar bilan yoritildi. Tadqiqot uchun zarur ma‘lumotlarning ilmiy bayoni tavsifiyo yo‘l bilan berildi. Tadqiqot oldiga qo‘yilgan asosiy muammoning aniq yechimi chog‘ishtirish metodi orqali belgilab olindi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

So‘z kiritmalar ko‘proq asosiy gapdagi substantiv elementlarga aloqador bo‘lib, odatda, gap strukturasi ichidan o‘rin oladi. So‘z kiritmalar gap strukturasiga kirish so‘z va kirish gaplar, bog‘lovchi va bog‘lovchi vazifasidgi so‘zlar bilan birlilikda kiritilishi, ba‘zan esa sifatlovchilar bilan kengayib kelishi, hatto izoh komponentga ega bo‘lishi mumkin. So‘z-kiritmalar grammatik belgisi jihatdan mustaqil so‘zlar sifatida ham, biror gap bo‘lagi shaklida ham keladi. Biror gap bo‘lagi shaklida kelmagan so‘z-kiritmalar gap bo‘laklari bilan mazmunan kuchsiz bog‘lanishda bo‘lib, odatda yordamchi funksiyani bajaradi. Bularga manba ko‘rsatuvchi kirirtmalarni ko‘rsatish mumkin.

So‘z kiritmalar ko‘pincha gapning biror bo‘lagi ma‘nosini, to‘g‘ri yoki ko‘chma, lug‘aviy, kontekstual ma‘nosini izohlab, aniqlab, tushuntirib kelishi yoki ular bilan bog‘liq ayrim qo‘sishimcha ma‘lumotlarni (narsa yoki hodisaning belgisiz xususiyatlari, holati va xarakteri kabi) ko‘rsatib kelishi mumkin. Bunga o‘zbek va ingliz badiiy adabiyotlardan misol qilib keltirib o‘tamiz.

*Tabib do‘koni oldida katta yig‘in (izdihom)  
to‘plangan edi. (G‘.G‘ulom)*

*Only because you’re too – well – noble to use them.  
(J.K.Rowling)*

Izohlanayotgan gap bo‘lagiga parallel bo‘lib kelgan so‘z-kiritmalar bilan uning (gap bo‘lagining) paralleli sifatida kelmagan so‘z-kiritmalar bir muncha xususiyatlar-izohlanayotgan so‘z yoki so‘z kiritmasiga nisbatan anglatgan ma‘no doirasi, funksiyasi, grammatik shakllanishi, o‘rnini va pozitsiyasi kabi jihatlari bilan bir-biridan ma‘lum darajada ajralib turadi. Shunga ko‘ra, so‘z-kiritmalarni ikki asosiy guruhga ajratib o‘rganish mumkin:

1) izohlanayotgan gap bo‘lagining paralleli sifatida kelgan so‘z-kiritmalar (parallel so‘z-kiritmalar);

2) izohlanayotgan gap bo‘lagining paralleli sifatida kelmagan so‘z-kiritmalar (noparallel so‘z-kiritmalar).

**Parallel so‘z-kiritmalar.** Bu tipdagи so‘z-kiritmalar gapdagi tushunilishi qiyin bo‘lgan (arxaizm, neologism, dialektizm va professionalism kabilari) so‘zlarni, fan va texnikaga oid terminlarni izohlab, aniqlab keladi. Shuningdek ular nutqda buzib aytilgan va turlicha nomlangan atamalarning, boshqa tildan o‘zlashtirilgan so‘z-terminlarning ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan adabiy tilga xos variant (doublet)lari, tarjimasi sifatida kiritilgan bo‘ladi. Biroq parallel so‘z-kiritmalar bir qator xususiyatlarga ko‘ra uyushiq va ajratilgan bo‘laklardan ajralib ham turadi [1].

*Xon voqenavislarni (josuslarni) ishga sola boshladи. (G‘.G‘ulom)*

*Kelinni (xotinimni) chaqirdi. (G‘.G‘ulom)*  
*He’ll be famous – a legend – I wouldn’t be surprised if today was known as Harry Potter Day in future – there will be books written about Harry – every child in our world will know his name! (J.K.Rowling)*

**Noparallel so‘z-kiritmalar.** Noparallel so‘z-kiritmalarining asosiy belgilaridan biri ularning o‘zlari aloqador gap bo‘lagiga bog‘liq qo‘srimcha ma‘lumot ifodalashidir. Ular, odatda, manba, o‘rin, payt kabi qo‘srimcha ma‘lumotlarni – narsa yoki hodisaning belgi-xususiyatini, shaxsning kasbi, millati, yashash joyi, fikrning kimga qarashli ekanligi, asarning nomi, beti kabi qo‘srimcha izoh va yordamchi faktlarni bayon qiladi.

*Yoshligimizda kiyik oviga tushardik. Akam Tursunboy (hozir u “Kommunizm” kolxzozining raisi) bizni boshlab turadi. (G’.G’ulom)*

*Mr and Mrs Dursley, of number four, Privet Drive, were proud to say that they were perfectly normal, thank you very much. (J.K.Rowling)*

So‘z-kiritmalar ifodalanayotgan qo‘srimcha ma‘lumotning xarakteri, qanday gap bo‘lagiga aloqadorligiga hamda materiali-grammatik shakli va qo‘llanish o‘rniga qarab, ma‘lum bir gap bo‘lagi xarakteriga ega bo‘ladi. Shunga ko‘ra ularni aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol xarakteridagi so‘z-kiritmalarga ajratish mumkin.

**Aniqlovchi so‘z-kiritmalar.** Aniqlovchi so‘z-kiritmalar vazifasida ko‘proq predmetning yoki shaxsning biror xususiyati, belgisi haqida qo‘srimcha fakt ifodalashga xizmat qiluvchi so‘zlar qo‘llanadi. Ular gap strukturasiga odatda, sifatlovchi va izohlovchilar tarzida kiritilib, izohlanayotgan qismga nisbatan o‘rni jihatdan inversiyaga uchragan gap bo‘lagiga o‘xshaydi.

*Sodiq temirchi degan bor, firqa. (G’.G’ulom)  
I knew you’d be just the same, just as **strange**, just as – as – **abnormal** – and then, if you please, she went and got herself blown up and we got landed with you! (J.K.Rowling)*

**To‘ldiruvchi so‘z-kiritmalar.** Faktlar to‘ldiruvchi so‘z-kiritmalarining juda oz miqdorni tashkil etishini, tushum kelishigi shaklidagi so‘z bilan ifodalanmasligi, gap sostaviga, odatda vositali to‘ldiruvchilar funksiyasida kiritilishini ko‘rsatadi:

*G‘ani boyvachchaning kapitaliga ham to‘rt gal (ora-choralardan tashqari) ulgurji-ulgurji daromadlar kelib qo‘sildi. (G’.G’ulom)*

*Oh, she got a letter just like that and disappeared off to **that – that school** – and came home every holiday with her pockets full of frog-spawn, turning teacups into rats. (J.K.Rowling)*

**Hol so‘z-kiritmalar.** Qo‘srimcha ma‘lumot ifodalovchi so‘z-kiritmalar hol funksiyasida nisbatan ko‘proq qo‘llanib, odatda o‘rin, payt, harakatning qanday bajarilishi kabi ma‘nolarni ifodalaydi:

*Men ham (**maqtanmay**) birdan oldin birdan keyin darsni olib borayotirman. (G’.G’ulom)  
But it’s that sad – knew er mum an’ dad, an’ nicer people eh couldn’t find – **anyway**. (J.K.Rowling)*

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kiritma konstruksiyalar, so‘z-kiritmalar tarzida qo‘llana oladi. Kiritma vazifasida mustaqil so‘zlargina emas, balki yordamchi so‘zlar ham ishlatalishi mumkin. So‘z-kiritmalar qo‘llanishi va grammatik shakllari, o‘rni va funksiyasiga ko‘ra o‘z ichida turli xil tip va ko‘rinishlarga ega bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. И.Тошалиев. Киритмаларнинг ажратилган бўлаклар билан муносабати ва улардан фарқи (“ТошДУ илмий асарлари”, 362-чикиши, “Ўзбек филологияси масалалари”, Тошкент, 1970).
2. И.Тошалиев. Киритмаларнинг нутқ таркибидағи ўрни (“Ўзбек тили ва адабиёти”, 1972, № 4, 63–65-бетлар).
3. А.Г.Фуломов, М.Аскарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили, синтаксис, Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти, 1965, 5-бет.
4. А.С.Сафаев. Исследования по синтаксису узбекского языка, Ташкент, “Фан”, 1968, стр. 8-11.
5. И.И.Щеболева. Вставочные конструкции в современном русском литературном языке, АКД, М., 1955, стр. 8.
6. Т.Р.Котляр. Вставочные конструкции в современном английском языке, Саратов, изд. Саратовского госуниверситета, 1962, стр. 14.
7. И.А.Бабакова. Явление вводности в русском языке, Харьков, 1955.
8. И.Тошалийев. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. Ўзбекистон CCP “ФАН” Нашриёти, Тошкент – 1976.